REAL O‘TMISH VA BADIIY MAHORAT: “YALDO KECHASI” ROMANIDA QAHRAMONLARI VA G‘OYAVIY-BADIIY TAHLIL

Gulmira Turg'unova
Namangan viloyati Chortoq tumani 31-umumta'lim maktabining ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu izlanishimizda Xayriddin Sultonning “Yaldo kechasi” romani real o'tmishimizga bog'liq holda o'rganildi. Asardagi qahramonlarga yuklatilgan vazifalar g'oyaviy-badiiy jihatdan tahlil qilindi. Shuningdek, xalqimizning mustamlakachilik davridagi fojiali hayoti va bir millat farzandlarining g‘oyaviy bo‘linishi masalasi ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilindi.

Kalit so‘zlar: “O‘tkan kunlar”, “Yaldo kechasi”, Abdulla Qodiriy, Xayriddin Sulton, Yodgorbek, Is’hoqxon to‘ra Ibrat, jadidchilik.

Annatation

In this research, Khayriddin Sulton's novel "The Night of Yalda" was studied in connection with our real historical past. The functions assigned to the characters in the work were analyzed from an ideological and artistic perspective. Furthermore, the tragic life of our people during the colonial era and the issue of the ideological division among the children of a single nation were analyzed from a scientific and theoretical standpoint.

Keywords: "Bygone Days", "Night of Yalda", Abdulla Qodiriy, Khayriddin Sulton, Yodgorbek, Is'hoqkhon Tora Ibrat, Jadidism.

O‘zbek adabiyoti tarixida Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani o‘zbek milliy romanchiligining ilk va tengsiz durdonasi sifatida alohida o‘rin tutadi. Asar yaratilgan davrdan boshlab hozirgi kungacha adabiyotshunoslar va yozuvchilar e’tiborini o‘ziga jalb etib kelmoqda. O'tkan asr ma'rifatparvar olimi, adabiyotshunos Abdurauf Fitrat romanga yuqori baho berib: “O‘tkan kunlar”chalik asar hali yaratilgani yo‘q,[1:146]-deya e’tirof etgan bo‘lsa, rus sharqshunos olimi Yevgeniy Bertels ushbu asar bilan jahonda oltinchi — o‘zbek romanchilik maktabi[1:140]ga asos solinganini ta’kidlagan edi.

Mustaqillik davri o‘zbek adabiyotida Qodiriy an’analarini munosib davom ettirgan adib Xayriddin Sultonning “Yaldo kechasi” romani “O‘tkan kunlar”ning o‘ziga xos mantiqiy, ruhiy hamda g‘oyaviy davomi sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu asar o‘quvchini yana bir bor Otabek va Kumushlar dunyosiga chorlab, ularning fojiali sevgisi, kelajak avlodlari taqdiri hamda millatning yuz yillik fojialari haqida mushohada yuritishga undaydi.

Muallif asarda, Abdulla Qodiriyning ta'biri bilan aytganda, "moziydan, yaqin o‘tkan kunlardan, tariximizning eng kirlik, qora kunlari" bo‘lg‘an chor hukumati va bolsheviklar hukumatidan so'zlaydiki, asar sarlavhasidagi o'xshatma bilan ham o'qig'uvchiga yetkazib qo'yadi. “Yaldo kechasi” iborasi yilning eng uzun, qorong‘u va sovuq tunini anglatadi. Yozuvchi bu o‘xshatma orqali bolsheviklar va sovet tuzumi ostida zulmatda qolgan xalqimiz, undan moddiy va ma'naviy merosining tortib olinishi, millat

© 2026 International Journal of Literature and Language Studies. All Rights Reserved.

ziyolilarining ayanchli taqdiri, shafqatsiz qatag‘on siyosati, milliy ruhimizga yot unsurlarni majburlab singdirilishi, ocharchilik yillari, milliy ozodlik harakatlarini yuksak badiiy mahorat bilan ifodalagan.

Qodiriy romanida Otabek va Kumushning farzandi sifatida dunyoga kelgan Yodgorbek siymosi “Yaldo kechasi”da XX asr boshidagi butun Turkiston jadidchilik harakatining sintetik (umumlashma) obraziga aylanadi. Asarda Yodgorbekning haj safariga borish lavhasi Mahmudxo‘ja Behbudiy, Is’hoqxon to‘ra Ibrat hamda Munavvarqori kabi ma’rifatparvarlarning Sharq va G‘arb mamlakatlariga qilgan ma’rifiy sayohatlarini yodga soladi. Yodgorbek bu safar davomida islom olamining ilmu fan va ma’rifatdan uzilib, jaholat botqog‘iga batamom botganini va mustamlakaga aylanganini teran anglab yetadi. Shuningdek, Yodgorbekning o‘z otameros xonadonida usuli jadid maktabi tashkil etishi, unda dunyoviy fanlar va rus tilini o‘rgatishi, maktab hamda gazetani “Najot” deb nomlashi bevosita real tarixiy voqelikka — Munavvarqori Abdurashidxonovning 1917-yilda chop etilgan “Najot” gazetasiga hamda jadidlarning o‘quv-ma’rifiy islohotlariga ishoradir. Yodgorbekning Sibirga surgun qilinishi, qochish paytida og‘ir jarohat olib otib tashlanishi o‘sha davrda fojiali halok bo‘lgan minglab ma’rifatparvar ziyolilarimizning umumiy qismatini namoyon etadi. Yodgorbek obrazi orqali muallif millatning uyg‘onish jarayoni va uning qanday qilib qonli siyosiy girdobga tushib qolganini ochib beradi.

Asardagi Yodgorbekning namanganlik ustozi Nusratxon to‘ra obrazi Namangan jadidchilik harakatining yirik namoyandasi Is’hoqxon to‘ra Ibratning badiiy talqinidir. Ziyoli, ma'rifatparvar maktabdor Nusratxon to'raning Gulbog' nomli bog' tashkil etgani va kezguvchilarga xitoban bog' gullarini uzib toptamaslik uchun yozib qo'yilgan xazilomuz she'rlari Ibrat qalamiga mansub bo'lib, shoirning otameros yerda "Is'hoqiya bog'i" tashkil etgani, bu bog' 1960-yilgacha saqlanib qolgani, uni xalq orasida Gulbog' deb atalgani tarixiy manbalardan ma'lumdir.[2:124, 126]

Bir millat va bir oila farzandlarining fojiali bo‘linishi. Yodgorbekdan qolgan ikki o‘g‘il — Ozodbek va Odilbek taqdiri asarning eng fojiali va yuqori kulminatsion nuqtasidir. Abdulla Qodiriy “O‘tkan kunlar” xotimasida Yodgorning bir o‘g‘li Marg‘ilonda mas’ul xodim, ikkinchisi Farg‘ona istiqlolchilari (bosmachilari) safida ekanligini ta’kidlab o‘tgan edi. Xayriddin Sulton bu g‘oyani teranlashtirib, Odilbekning Vatan erki uchun jangda halok bo‘lishi hamda Ozodbekning sovet tuzumiga xizmatiga qaramay oxirida ayanchli o'lim topishi orqali sho‘ro mafkurasi bir qondan bo‘lgan jigarlarni, ota-bolalarni va butun millatni ichdan ikkiga bo‘lib tashlaganini shafqatsiz haqiqat sifatida ko‘rsatib beradi. Bu holat mustamlakachilik va mafkuraviy tazyiqlar xalqimizni qanday qilib fojiali qarama-qarshiliklarga olib kelganini yaqqol namoyon etadi.

Asarda yana bir obrazga to'xtalib o'tishni joiz deb bilaman: Nusratxon to'raning sho'x-shaddod, erkaklarcha mard, shiddatli singlisi Oyniso xonim. Bu qahramon "xalq - musulon, xon - musulmon bo'lgan bir davrda"[4:100] ot o'ynatib, erkakcha kiyinib yurishi, ovga qiziqishi, qat'iyati, hatto o'ziga munosib kuyovni ham o'zi tanlab, odam qo'yishi davomida, Zumrad bibi xonadoniga borib, Odilbekni kuyov qilish havasi bilan qarindoshlik rishtalarini bog'lash taklifi o'sha davr uchun endi yangicha fikrlovchi, qat'iyatli, baxtni g'oyibdan kutib o'tirmaydigan ayollar lozimligini ko'rsatib beradi.

Xulosa qilib aytganda, bu asar va ulardagi badiiy obrazlar xalqimiz bosib o'tgan mashaqqatli yo'lni, erk va ma'rifat yo'lidagi kurashlarni unutmaslik hamda milliy birdamlikning qadriga yetish naqadar muhimligini bugungi avlodlarga uqtiruvchi ma'naviy saboqdir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Jadidlar. Abdulla Qodiriy: risola / B. Karimov. – Toshkent: 2022.
2. Jadidlar. Is'hoqxon to'ra Ibrat: risola / U. Dolimov. – Toshkent: 2022.

© 2026 International Journal of Literature and Language Studies. All Rights Reserved.

3. Jadidlar. Mahmudxo'ja Behbudiy: risola / Z. Abdurashidov. – Toshkent: 2022.
4. "Yaldo kechasi". X. Sulton – Xaybar-25: 2025.
5. "O'tkan kunlar". Abdulla Qodiriy: roman. – Toshkent: 2024.
6. https://jadid.uz

© 2026 International Journal of Literature and Language Studies. All Rights Reserved.